

**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY-INNOVATSION
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH****Qarabayev Jamshid Rustamovich***Namangan davlat universiteti, ta'lim menejmenti kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda faoliyat talablariga moslasha olish qobiliyatini shakllantirish sifatli va samarali ta'lim garovidir.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetentlik, innovatsion potensial, ta'lim texnologiyalari, kommunikativ kompetentsiya, umummadaniy kompetentsiyalar.*

Аннотация: *Формирование уровня профессиональной подготовки специалистов и способности адаптироваться к требованиям деятельности является гарантией качественного и эффективного образования.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, инновационный потенциал, образовательные технологии, коммуникативная компетентность, общекультурные компетенции.*

Abstract: *The formation of the level of professional training of specialists and the ability to adapt to the requirements of activity is a guarantee of quality and effective education.*

Key words: *professional competence, innovative potential, educational technologies, communicative competence, general cultural competences.*

O'zbekiston Respublikasida mehnat va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning strategik rejalarini ishlab chiqishda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda faoliyat talablariga moslasha olish qobiliyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni samaradorligini oshirish bilan bog'liq quyidagi vazifalarni hal qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi:

- bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish mazmunini mutaxassislar tayyorlashga qo'yiladigan mehnat bozorining zamonaviy talab va takliflariga asoslanib belgilash;

- kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni sifatli o'zlashtirilishining innovatsion potensialini shakllantiruvchi pedagogik-psixologik omillar va shart-sharoitlarni aniqlash;

- innovatsion o'qitish texnologiyalariga asoslangan kasbiy kompetentlikni shakllantirish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

- pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy nashrlar, elektron darsliklar, o'quv-metodik majmualar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Ma'lumki, kasbiy kompetentlikni shakllantirish aniq maqsadga yo'naltirilgan, tizimli jarayon hisoblanadi.

Tadqiqotchi M.Umaraliyeva o'zining umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish yo'nalishidagi tadqiqotlarida, umumiy o'rta ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi - bu o'zining kasbiy mahoratini mukammal rivojlantirgan, dars jarayonini nafaqat loyihalashtiradigan, balki uni boshqara oladigan, ta'lim

islohotlarini, zamon talablarini, innovatsiyalarni tez ilg'ab, uni dars jarayonida samarali qo'llay olishi, deb ta'rif beradi.

Tadqiqotchi zamonaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablarni quyidagicha keltirib o'tadi:

1. Ta'limda texnologiyalardan foydalanadi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar o'qituvchining asosiy qurollaridan biriga aylangan. Zamonaviy o'qituvchining yordamchilaridan biri – ta'lim platformalari, mobil ilovalar, onlayn-kurslar, viktorina va aqliy o'yinlar, olimpiadalar, konkurs va marafonlar hisoblanadi. Bu esa nafaqat berilgan materialni eslab qolishga yordam beradi, balki o'qituvchilarning dars berish jarayoni samaradorligini kuchaytiradi.

2. O'zini huquqlarini yaxshi biladi. Turli xil vaziyatlarda o'qituvchi va o'quvchining o'z huquqlarini bilishi o'qituvchining qonun doirasida faoliyat ko'rsatishiga yordam beradi.

3. Vaqtni to'g'ri taqsimlaydi. O'qituvchining kundalik ishi – bu darsga tayyorlanish, ta'lim sohasidagi barcha yangiliklardan xabardor bo'lishdir.

4. Moliyaviy savodxonlikka ega. O'qituvchi moliyaviy savodxonligini o'zi mustaqil adabiyotlarni o'qib yoki turli xil seminarlarga, kurslarga qatnashib o'rganishi lozim.

5. Zamonaviy o'quvchiga qanday yondashishni biladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – zamonaviy ta'limning asosi hisoblanadi. Bu yondashuv o'qituvchidan o'quvchining shaxs sifatidagi qiziqishlari va uning kamchiliklarini to'laligicha qabul qilish, asosiysi u bilan til topishishdir.

6. Boshqaruvchanlik ko'nikmalariga ega. Zamonaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalariga, asosan, boshqaruvchanlik ko'nikmalari shakllangan pedagoglar kerak. O'qituvchi o'zini-o'zi boshqarishi, o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishi, bilimi, ko'nikma va malakalarini o'zi tomonidan obyektiv baholashi uning uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi quyidagi yo'nalishlarda aks ettiriladi:

kommunikativ kompetentsiya, ya'ni:

- jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

- ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

- muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

- turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish.

axborot bilan ishlash kompetentligi:

- mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio, audio–video yozuv, telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

- media vositalaridan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatiga rioya qilish;

- ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

- kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish.

shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasi:

- shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

- hayot davomida o'qib o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

- o'z hatti-harakatini baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;

- o'qib-o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi:

- jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga dahldorlikni his etish va ishtirok etish;

- o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya'ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);

- mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo'lish;

- kasbiy mavqeyining o'sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo'lish.

umummadaniy kompetentsiyalar:

- vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish;

- badiiy va san'at asarlarini tushunish, ta'sirlana olish;

- yurish-turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish;

- umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

- o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylilik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish va boshq.

metodik kompetentlik - o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o'zlashtirish, amalda qo'llash, kasbiy faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil eta olish, ilg'or pedagogik va xalqaro tajribalarni o'rganish, o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalari bilan tavsiflanadi.

Aksariyat pedagogik-psixologik adabiyotlarda kasbiy kompetentlik shaxsning ijtimoiy-kasbiy yo'nalganligi asosida shakllanadigan, kasbiy vazifalarning samarali yechimini ta'minlashga xizmat qiluvchi kasbiy tayyorgarlikning amaliy faoliyatda namoyon bo'lishi sifatida izohlanadi.

Shu bilan birga, kasbiy kompetentlik mutaxassis kasbiy tayyorgarlik darajasining faoliyat talablariga mosligi va layoqatligi sifatida ham qayd etiladi. Bu mehnat bozorining zamonaviy mutaxassislarga bo'lgan talablari, integrativ kasbiy-shaxsiy sifatlarni majmuasi hamda kompetentsiyalarga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat mazmuni orqali ifodalanadi. Shunga ko'ra, kasbiy kompetentlikni dogmatik kategoriya sifatida emas, aksincha mutaxassisning kasbiy

faoliyati va hayoti davomida doimiy rivojlanish dinamikasini talab qiladigan tizimli jarayon sifatida baholash lozim. Bu esa, oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni va tuzilmasini ta'limni modernizatsiyalash sharoitidagi innovatsion talablar asosida takomillashtirish maqsadini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “Biologiyani o’qitishda o’quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish” M.Umaraliyeva avtoreferat 12-13 bet.
2. Mirsalieva, M., Otamurodov, G., & Karabaev, J. (2020). MODEL OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF MANAGERS AND TEACHERS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE EDUCATION. *Solid State Technology*, 63(1s), 1809-1815.